

## TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI

**Tashmatova Gulzoda Nimatullayevna**

*Guliston davlat universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy va axloqiy madaniyatining shakllanishi, o'tkazilgan pedagogik-psixologik tajriba-sinov ishlari va natijalarining statistik tahlili, olingan ta'lim sifati va yaratilgan psixologik shart-sharoitlarning talaba imkoniyatlari va qiziqishlari doirasidan kelib chiqib amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Kasbiy moslashish, kasbiy yo'nalganlik, talaba, mutaxassis, mehnat jarayoni, bo'lajak o'qituvchilar, motivatsiya, qiziqishlar, tajriba-sinov, kasbiy faollik.*

Ma'lumki, kasbiy moslashishda bo'lajak mutaxassisning motivatsion tayyorgarligi muhim o'rin tutadi. Bo'lajak o'qituvchining motivatsion tayyorgarligining asosini kasbiy yo'nalganligi ya'ni o'z kasbi, mutaxassisligining mohiyatini tushuna olishi, kasbiy faoliyatiga nisbatan o'zida pozitiv munosabatni tarkib toptirishi, kasbiy hayotiy maqsadlarining aniqligi, bilish faoliyatiga qiziqishning rivojlanishi tashkil etadi. Bu mutaxassisning ta'lim olish jarayonidagi o'zini shaxsiy va kasbiy rivojlantirishida, namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tajriba-sinov ishlari so'rovnomasidagi I-blok murojatlari talabalardagi motivatsion tayyorgarlik, kasbiy yo'nalganlik va kasbiy sifatlarning shakllanganlik darajasini baholashga qaratildi. Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida qo'lga kiritilgan natijalarning haqqoniyliги va ishonchliligini o'rganish maqsadida ularni miqdor va sifat jihatidan tahlil etishga alohida e'tibor qaratildi.

Pedagogik-psixologik tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida maxsus ishlab chiqilgan anketa so'rovlari asosida sinaluvchilardagi kasbiy moslashishning mavjud holati yuqorida belgilangan mezonlar asosida aniqlandi va respondentlarning javoblari tahlil etildi.

Tadqiqotda asosiy maqsad bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish darajasini oshirishga yo'naltirilib, belgilangan maqsadning kafolatli natijasi pedagogik jarayonning shaxsning kasbiy yo'nalganligi, kasbiy bilimlarning o'zlashtirilishi, olingan ta'lim sifati va yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarning talaba imkoniyatlari va qiziqishlari doirasidan kelib chiqib amalga oshirilishini bilan belgilandi. Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijalarini tahlil etish mazkur fikrlarning amaldagi tasdig'ini yana bir bor isbotladi.

Ma'lumki, talabalik davri - mehnat hayotida o'z-o'zini aniqlab olish yoshi bo'lib, bu vaqt talabada o'zining kelajakdagi kasbiy hayotiy maqsadlarini aniq belgilab olish intilishi paydo bo'ladi. Bu davrda talaba ongli to'g'ri qaror qabul qilishi uchun birinchidan, amaldagi mehnat bozorining u yoki bu kasb turiga bo'lgan ehtiyojini, ikkinchidan, o'z moyilligi va bu

kasb qo'yadigan talablarga qanchalik muvofiq kelishini bir so'z bilan aytganda tanlangan kasb mohiyatidan to'liq xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

So'rovnoma natijalarini o'rganish bo'lajak o'qituvchilarning motivatsion tayyorgarligini yoritishning quyidagi jihatlariga alohida e'tibor berish lozimligi ko'rsatadi:

1. Talabalardagi ichki sabablarga asoslangan kasbiy yo'nalganlik (motivlar, ehtiyojlar, maqsad va qiziqishlar asosida shakllangan kasbiy yo'nalganlik). Bu asosan 3-4 bosqich talabalariga xos xususiyat sifatida tadqiq etildi.

2. Talabalardagi tashqi sabablarga asoslangan kasbiy yo'nalganlik ya'ni kasbiy faoliyatning tashqi shart - sharoitlari va holatiga asoslangan yo'nalganlik.

Bu xususiyat aksariyat 1 - bosqich respondentlarida kuzatildi. Xususan,

Birunchi bosqich talabalarining 17 tasida pedagogik faoliyatga intilish darajasi yuqori, 20 tasida o'rta, 13 tasida quyi daraja aniqlandi.

Ikkinchi bosqich talabalarida bu ko'rsatgich quyidagicha ko'rinishni aks ettirdi, ya'ni jami 50 talabadan 12 tasida pedagogik faoliyatga intilishning yuqori darajasi, 17 tasida o'rta va 21 tasida quyi daraja kuzatildi.

Uchinchi bosqichda yuqori daraja 15 ta sinaluvchilarda, o'rta daraja 21 ta va quyi daraja 14 ta sinaluvchilarda aniqlandi.

Bitiruvchi kurs talabalarining so'rovnoma savollariga bergan javoblari tahlil etilganida pedagogik faoliyatga intilishning yuqori darajasi 25 ta, o'rta darajasi 13 ta va quyi daraja 12 ta sinaluvchilarda o'rganildi.


Natijalardan ko'rinib turibdiki, pedagogik faoliyatga intilish motivatsiyasi 1-4 bosqich talabalarida 2-3 bosqich talabalariga qaraganda yuqoriroq natijalar ko'zga tashlandi.

Buning sababini kasb tanlash motivlari, kasbiy o'zini anglash, kasbiy tasavvurlar bilan bog'lab tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, dastlabki kasbiy tasavvurlar ta'sirida pedagogik faoliyatga intilish darajasi yuqori bo'lsa (1-bosqich), kasbiy faoliyatning shaxsga qo'yadigan talablari, kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirishdagi mashshaqqatlar hamda moslashish jarayonidagi qiyinchiliklar bu intilishning muayyan davrda susayishiga (2-3 bosqich) sabab bo'lgan.


Kasbiy moslashish jarayonlarining samarali kechishi, kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish, kasbiy faoliyatda o'zini anglash esa 4-bosqich talabalardagi faol kasbiy pozitsiyaning shakllanishiga sabab bo'lgan.

### 1.jadval Pedagogik faoliyatga moslashish darajasi

Bosqichlar	Tajriba davrida, n = 200 ta					
	Tajriba guruhi (har bir bosqichda 25 tadan)			Nazorat guruhi (har bir bosqichda 25 tadan)		
	yuqori	o'rta	quyi	yuqori	o'rta	quyi
I	9	10	6	8	10	7
II	6	8	11	6	9	10
III	8	10	7	7	11	7
IV	12	7	6	13	6	6



1-raam Pedagogik faoliyatga moslashib darajasi (Tajriba guruh)



2-raam Pedagogik faoliyatga moslashib darajasi (Nazorat guruh)

Yuritilgan mulohazalardan koa moslashish darajasi shakllanishiga sabab bo'lgan. o'zlashtirish, kasbiy faoliyatda o'zini anglash esa Chunki, dastlabki kasbiy tasavvurlar ta'sirida pedagogik faoliyatga intilish darajasi yuqori bo'lsa (1-bos. ifodasidir). Shuning uchun talabalarning pedagogik kasb doirasida muvaffaqiyatli harakat qilishini ta'minlovchi bilish faolligini rivojlantirish, mustaqil bilim olishga, o'z imkoniyatlarini kasbiy faoliyatda sinab ko'rishga o'rgatish, shuningdek, kasbiy bilim va ko'nikmalarni faol o'zlashtirishiga zamin hozirlash bilan shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir.

Hulosa qilib aytganda, an ko'iy moslashish darajasini aniqlashiga sabab boiyatli harakat qilishini ta faoliyatda o'zini anglash esa Chunki, dastlabki kil bilimasbga munosabat va kasbiy maxsus bilimlarining to'liq o'z davrida amalga oshirilgan tadbirlar o'zining amaliy natijalarini berdi. Bu holat ta'kidlovchi tajriba davrida sinaluvchi- talabalar o'rtasida qayta anketa so'rovlarini tashkil etish va ularning natijalarini tahlil qilish chog'ida dinamik o'sish ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar ma'lum bo'ldi.

#### ADABIYOTLAR ROYTGANDA:

1. Abduvalieva M.I. Kasb-hunar kolleji o'oh darajasini aniqlashiga sabab bobogan. o.olashtirish, kasbiy faoliyatda o'osh faolligini rivojlardagi kasbiy axbo2. valieva M.I. Kasb-hunar kolleji o'ouvchilarning kasbiy moslashuvini shakllantirish va rivojlantirish: Rzovaniya.: Avtoreph. diss. dokt. ped. nauk. - T.: 1997. - 46 s.

3. Karakulova U.A aAxborot savodxonligi va axborot izlash xulq-atvoridagi psixologik omillar"miKompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiya. Oktyabr 2022 yil

4. Karakulova U.A"Zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalarda modulli yondashuvning mazmuni, maqsadi va vazifalari"aziKompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari"emavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiya Oktyabr 2022 yil